

Xorazmdagi arxitektura yodgorliklari tadqiqiga bag'ishlangan monografiya nashr etildi

Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori Baxtiyar Babadjanov muallifligida Venada "Эпиграфические памятники Хорезма" nomli monografiyaning 1-jildi nashr etildi.

Ushbu kitobda Xorazmdagi arxitektura yodgorliklarida arab, fors va o'zbek tillarida bitilgan epigrafik yozuvlarning tarjima va tadqiqi berilgan. Mazkur bitiklarning turli tarixiy davrlardagi ijtimoiy va diniy hayotning in'ikosi ekanligi ko'rsatib berilgan. Kitob fotosuratlar bilan ta'minlangan.

Kitobning birinchi jildida ilk bor Xiva shahri va atroflaridagi me'moriy obidalar, qabrtoshlar va boshqa buyumlardagi arab, fors va o'zbek tillaridagi bitiklar (epigrafika) to'la o'qilib, tarjima etilib, barcha obidalar haqidagi ma'lumotlar qo'yozma manbalar asosida keng sharhlar bilan boyitilgan. Xronologik qamrovi: XI-XX asr boshlari. Monografiyada obidalar va ulardagi bitiklar tarixlarining har tomonlama tahlili ilk bor amalga oshirildi. Xususan, quruvchi-donatorlarning ijtimoiy, diniy va siyosiy motivatsiyalari, epigrafik matnlarning semantik xususiyatlari, epigrafika ijtimoiy proklamatsiya sifatida, obidalar va ularning epigrafikasining autentik "tarixiy maydonda" (landshaftda) tutgan o'rni, shuningdek, bitiklar "qadimgi shahar ijtimoiy arxivi" sifatida, ularning ajdodlarimiz mafkurasidagi o'rni va shunga o'xshash masalalar ilk bor keng ravishda tahlil etildi.

Kitob Avstriya akademiyasining Eronshunoslik institutida (Institut Für Iranistik) amalga oshirilgan "Xorazm tarixi: arxivlar orqali kuzatishlar" loyihasi doirasida chop etildi.